

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH

Urolova Charos Shavkatovna

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki

Tolov tizimlarini rivojlantirish departamenti yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishning mohiyati, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati hamda uni joriy etish zaruriyati yoritilgan. Raqamli transformatsiya sharoitida bank xizmatlarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirilishi, masofaviy bank xizmatlari, mobil ilovalar, internet-banking va elektron to'lov tizimlarining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarining mijozlarga qulaylik yaratish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish va mamlakat iqtisodiyotining raqamli rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli bank xizmatlari, raqamli transformatsiya, bank tizimi, internet-banking, mobil banking, elektron to'lovlar, fintech, moliyaviy texnologiyalar, masofaviy xizmatlar, bank innovatsiyalari, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy inklyuziya, O'zbekiston bank sektori.*

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi barcha sohalarga, jumladan, bank tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida bank xizmatlarini masofadan turib ko'rsatish, moliyaviy operatsiyalarni tez va xavfsiz amalga oshirish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va aholiga qulay xizmatlar ko'rsatish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli bank xizmatlari bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqib, xizmatlar sifati va tezkorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mobil ilovalar, internet-banking, elektron hamyonlar, QR-kod orqali to'lovlar va masofaviy identifikatsiya tizimlari bugungi kunda moliyaviy xizmatlarning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Mamlakatimizda naqd puldan foydalanishni qisqartirish va elektron pullardan foydalanishni yanada oshirish maqsadida mamlakatimiz prezidenti tomonidan 2025 yil 10 dekabrda "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimch chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon imzolangan.

O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bir qator sezilarli natijalarga olib keldi. Raqamli banklar, masalan, "Anorbank" va "TBC Bank" kabi

yangi loyihalar, 2023-yildan beri 20% o‘shishni ko‘rsatmoqda, bu esa moliyaviy inklyuzivlikni oshirib, bank samaradorligini 15% ga yaxshilagan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya banklarning operatsiyalarini 30% ga tezlashtirgan. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bank sektorida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan forumlar va tadbirlarning ko‘payishiga olib keldi. Ko‘plab tijorat banklari o‘z mobil ilovalari va onlayn platformalarini takomillashtirib, mijozlarga uydan chiqmasdan turli bank operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini yaratdi.

Bank kartalari soni 65 milliondan oshdi, POS-terminallar soni 424 mingga yaqinlashdi, bankomatlar soni 39 mingga yetdi va 2025 yilning 10 oyi davomida to‘lov terminallari orqali tushgan tushumlar hajmi 360 trillion so‘mni tashkil qilgan, ro‘yxatdan o‘tga electron pullar tizimlari 12 ta va masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 74 milliontani tashkil etgan⁵². Bu esa naqd pul muomalasini kamaytirish va elektron to‘lovlarni ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Raqamli filiallar bank xizmatlarini mijozlarga yanada yaqinlashtirmoqda. Hukumatning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” loyihasi doirasida bank tizimini raqamlashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Banklar raqamli transformatsiya holati reytingida yuqori o‘rinlarni egallashga intilmoqda. Masalan, MKBANK ushbu reytingda 4-o‘rinda turibdi. Sakkizta bank raqamli identifikatsiya mexanizmlaridan (Face ID) foydalanmoqda.

Izchil raqamli transformatsiya jarayonida banklar yangi texnologik bosqichga chiqmoqda hamda turli ko‘lam va murakkablikdagi integratsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur texnik, infratuzilmaviy va ekspert asosini shakllantirmoqda. Bugungi kunda bank startaplar, IT-kompaniyalar, fintex tashkilotlar, servis provayderlari, marketpleyslar, to‘lov platformalari, sug‘urta, skoring, davlat xizmatlari hamda boshqa texnologik hamkorlar bilan hamkorlik qilish evaziga banklarning raqamli xizmat ko‘rsatishi miqdor va sifat jihatidan ortib bormoqda.

Yaratilayotgan texnologik baza keng ko‘lamdagi loyihalarni ko‘rib chiqish imkonini beradi: alohida API-integratsiyalar va raqamli servislarni ulashdan boshlab, mijozlar tajribasini rivojlantirish, moliyaviy xizmatlar qulayligini oshirish va yangi biznes-modellarni ishga tushirishga qaratilgan kompleks ekotizim yechimlarigacha.

Banklar mijozlar uchun qulay, xavfsiz, kengaytiriladigan va talab yuqori bo‘lgan raqamli mahsulotlarni yaratishga xizmat qiladigan hamkorliklarga alohida e‘tibor qaratmoqda. Banklar texnologiyalarni faqat avtomatlashtirish vositasi sifatida emas, balki yangi servislarni shakllantirish, biznes samaradorligini oshirish va zamonaviy moliya bozorini rivojlantirish asosi sifatida ko‘rsagina boshqalardan ustunlikka ega bo‘ladi, chunki bu zamon talabi hisoblanadi.

Banklar innovatsion texnologiyalar va tadbirkorlik yondashuvini birlashtiradigan tashabbuslarga ochiq, istiqbolli loyihalarni muhokama qilish, integratsion modellarni

⁵² <https://infocom.uz/statistics?ysclid=mqcyx0sng838973531>

birgalikda ishlab chiqish va mijozlar hamda bozor uchun real foyda keltiradigan yechimlarni ishga tushirishga tayyor, startaplar, IT-kompaniyalar, fintexlar va texnologik hamkorlik natijasida yangi avlod raqamli mahsulotlarini yaratishi mumkin.